

INKLYUZIV TA'LIMNING ME'YORIY-HUQUQIY ASOSLARI VA MAXSUS TA'LIM

Rizayeva Shalola

*Jizzax viloyati Pedagoglarni yangi
Metodikalarga o'rgatish milliy markazi
Pedagogika va psixologiya, ta'lim texnologiyalari
kafedra o'qituvchisi*

Kalit so'zlar: Inklyuziv ta'lim, imkoniyati cheklangan bolalar, me'yoriy-huquqiy asos, umumta'lim, maxsus ta'lim.

Ключевые слова: Инклюзивное образование, дети с ограниченными возможностями, нормативная база, общее образование, специальное образование.

Keywords: Inclusive education, children with disabilities, regulatory framework, general education, special education.

Inklyuziv ta'limning bosh g'oyasi: "Bola ta'lim jarayoniga emas, ta'lim jarayoni bola imkoniyatiga moslashtiriladi".

Odatda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ta'lim shaklini tanlashda turli cheklovlarga duch keladilar. Aynan shu konsepsiya orqali alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar turli cheklovlar qo'yishning oldi olinadi, masalan: qila olmaydi, mumkin emas, sen uchun emas, uddasidan chiqolmaydi va hokozolar. Bu konsepsiya asosida alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalarning barchasi umumta'lim maktablariga inklyuziv ta'lim asosida teng huquqlikni ta'minlashgan holda sog'lom tengdoshlari bilan ta'lim olishlari mumkin bo'ladi.

Ta'kidlash joiz alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga kerakli shart-sharoitlarni yaratish asosida (masalan: agar yaratib berilsa, bajara oladi yoki uddasidan chiqadi") ularni maktab orqali ijtimoiy hayotga yo'naltirish va ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishlariga erishtirish mumkin bo'ladi.

Bejizga "o'rganmaydigan bola bo'lmaydi" deb aytilmaydi, agar ta'lim usuli to'g'ri tanlansa ta'limga ehtiyoji bo'lgan har qanday bolaga ta'lim berish va undan natija olish mumkindir. Shu qatorda alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalarga ham.

Ma'lumki, inklyuziv ta'limda maxsus ta'lim ehtiyojidagi bolalar barcha bolalar bilan birga ma'lum maqsadda turli qobiliyatlarga muvofiq guruhlashtiriladi.

Maxsus ta'lim aqliy, jismoniy tashqi ko'rinishga muvofiq amalga oshirilsa, inklyuziv ta'lim bolaning qobiliyati va imkoniyatlariga ko'ra belgilanadi. Maxsus ta'lim o'qitishning maxsus va alternativ dasturlari orqali o'qitilsa, inklyuziv ta'lim

bolaga yo'naltirilgan va moslashtirilgan, yo'riqnomali, barchaga mo'ljallangan o'quv dasturi asosida o'qitiladi. Inklyuziv ta'limning o'ziga xos muhim jihati shundaki, bolalar va o'qituvchi bir-birlaridan o'rganishadi hamda muammolarni birgalikda xal etishadi.

Bu ta'lim bir tomonlama bo'lmasligi kerak. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolada o'ziga bo'lgan ishonchni oshirish, ko'nikma va qobiliyatini rivojlantirish, yoshligidan o'rganishni rag'batlantirishda oila ishtiroki muhim. Inklyuziv ta'lim jarayonida ota-onalar bilan ishlash ham muhim. Ta'kidlash joizki, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning ota-onalariga ularning farzandlari jamiyatning bir bo'lagi bo'lish huquqiga ega ekanini tushuntirish, bu ishonchni ularning ongiga yetkazish kerak. Mamlakatimiz ta'lim tizimida bu masalaga alohida e'tibor qaratiladi.

Masalan, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni ta'limini tashkil etish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2021-yil 12-oktabrdagi 638-son "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi qarori tasdiqlangan. Aynan shu qaror asosida qaysi toifadagi bolalar inklyuziv ta'lim jarayoniga kiritilishi mumkin ekanliklari batafsil yoritib berilgan.

1. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun Qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 19-mayda qabul qilingan, Senat tomonidan 2020-yil 7-avgustda ma'qullangan. 2020-yil 23-sentabrda Prezident tomonidan imzolangan va O'RQ-637-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.

Ushbu Qonunning maqsadi: Ta'lim sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat (1-modda).

4-moddada ta'lim sohasidagi asosiy prinsiplar belgilangan.

Ta'lim sohasidagi asosiy prinsiplar quyidagilardan iborat:

ta'lim ustuvorligining tan olinishi;

ta'lim olish shaklini tanlash erkinligi;

ta'lim sohasida kamsitishlarga yo'l qo'yilmasligi;

ta'lim olishga doir teng imkoniyatlarning ta'minlanishi;

ta'lim va tarbiyaga milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarining singdirilganligi;

ta'lim va tarbiyaning insonparvarlik, demokratik xususiyati;

ta'limning uzluksizligi va izchilligi;

o'n bir yillik ta'limning hamda olti yoshdan yetti yoshgacha bo'lgan bolalarni bir yil davomida umumiy o'rta ta'limga tayyorlashning majburiyligi;

davlat ta'lim standartlari va davlat ta'lim talablari doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqligi;

o'quv dasturlarini tanlashga doir yondashuvning yagonaligi va tabaqalashtirilganligi;

insonning butun hayoti davomida ta'lim olishi;

jamiyatda pedagoglarni ijtimoiy himoya qilishning kafolatlanganligi;
ta'lim tizimining dunyoviy xususiyatga egaligi;
bilimlilik, qobiliyatlilik va iste'dodning rag'batlantirilishi;
ta'lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvining uyg'unligi;
ta'lim faoliyati sohasidagi ochiqlik va shaffoflik.

5-moddada esa ta'lim olish huquqi belgilangan.

Jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar, har kimga ta'lim olish uchun teng huquqlar kafolatlanadi.

20-modda esa aynan inklyuziv ta'limga tegishli modda hisoblanadi.

Inklyuziv ta'lim alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta'lim oluvchilar uchun ta'lim tashkilotlarida ta'lim olishga bo'lgan teng imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilgan.

Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar (shaxslar) uchun ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'lim tashkil etiladi.

Inklyuziv ta'limni tashkil etish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

2. “Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida”gi Qonun

Ushbu Qonun 2020-yil 15-oktabrda tasdiqlangan. O'zbekiston Respublikasi Qonunlari ro'yxatidan 641-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan. Qonun 49-moddadan iborat.

Ushbu Qonunning maqsadi nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini ta'minlash sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

2020-yilning 15-oktyabr kuni Prezidentimiz tomonidan imzolangan «Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida»gi shbu qonun nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirishda muhim huquqiy asos bo'ldi.

Avvalgi amaldagi qonunda esa nogironligi bo'lgan shaxslarning tengligini ta'minlash va kamsitmaslik, shaxsiy hayotning daxlsizlik huquqi, harakat erkinligi va fuqarolik huquqi, jismoniy muhitning qulayligi, uy-joyga bo'lgan huquqi kabi bir qator huquqlari to'liq qamrab olinmagan edi.

Ushbu qonunning ahamiyatli tomoni shundaki, unga asosan, binolarga kirib-chiqish uchun maxsus yo'lakchalar, panduslar, jamoat transportida maxsus o'rindiqlar joylashtiriladi. Ta'lim olishning barcha bosqichlarida sharoit yaratilib, kasb-hunarga o'rgatish, kollej va texnikumlarda ta'lim olishlari davlat hisobidan ta'minlanadi. Mahalliy hokimliklar esa nogironligi bo'lgan shaxslar uy-joy sharoitini yaxshilashga mas'ul bo'ladi.

Ushbu Qonunning 3-moddasida quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

nogironlik belgisiga ko'ra kamsitish — maqsadi yoki natijasi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, fuqaroviy sohada yoki boshqa sohada o'zgalar bilan nogironligi bo'lgan shaxslarning teng huquq va erkinliklarini e'tirof etishni yoki ro'yobga chiqarishni

inkor qilishdan iborat bo'lgan, nogironlik sababli har qanday ajratib qo'yish, istisno etish, chetlatish, cheklash;

nogironligi bo'lgan bolalar (bola) — barqaror jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari tufayli hayotiy faoliyati cheklanganligi munosabati bilan davlat va jamiyat tomonidan ijtimoiy yordam ko'rsatilishiga hamda o'z huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilinishiga muhtoj o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan shaxslar;

nogironligi bo'lgan shaxs — ijtimoiy yordam va himoyaga, jamiyat va davlatning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy hayotida boshqalar bilan birga teng to'liq va samarali ishtirok etish uchun shart-sharoitlar yaratilishiga muhtoj barqaror jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan shaxs;

nogironligi bo'lgan shaxslarni ijtimoiy himoya qilish — hayot faoliyatiga doir cheklovlarni yengib o'tish, ularning o'rnini qoplash (kompensatsiya qilish) uchun nogironligi bo'lgan shaxslarga shart-sharoitlarni ta'minlaydigan hamda ularga jamiyat va davlat hayotida ishtirok etishning boshqa fuqarolar bilan teng imkoniyatlarini yaratishga qaratilgan, davlat tomonidan kafolatlangan iqtisodiy, ijtimoiy va huquqiy chora-tadbirlar tizimi;

nogironligi bo'lgan shaxslarning jamoat birlashmalari — nogironligi bo'lgan shaxslar tomonidan nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularning jamiyat va davlat hayotida boshqa fuqarolar bilan teng ravishda ishtirok etish imkoniyatlarini ta'minlash maqsadida tuzilgan nodavlat notijorat tashkilotlari;

protez-ortopediya moslamalari — yo'q bo'lgan qo'l-oyoqlarning yoki tana boshqa qismlarining o'rnini bosish uchun mo'ljallangan, organizmning buzilgan yoki yo'qolgan funksiyalarini kompensatsiya qiluvchi moslamalar;

surdotarjima — biror-bir tildan daktil alifbosi yordamida va (yoki) imo-ishora tilida tarjima qilish usuli;

surdotexnika vositalari — eshitishdagi nuqsonlarni tuzatish va kompensatsiya qilish uchun texnik vositalar, shu jumladan aloqani va axborot uzatishni kuchaytiruvchi vositalar;

tibbiy-ijtimoiy ekspertiza — tekshiruvdan o'tkazilayotgan shaxsning klinik-funksional, ijtimoiy, kasbiy-mehnat va psixologik ma'lumotlarini kompleks baholash asosida uning sog'lig'i yo'qolganligi darajasini hamda organizmining funksiyalari turg'un buzilganligi sababli hayot faoliyati cheklanganligi darajasini, nogironlik guruhini, nogironlikning boshlanishi sababi hamda vaqtini aniqlash, shuningdek shaxs uchun sog'lig'ining holatiga ko'ra mumkin bo'lgan mehnat faoliyati turlari va zarur mehnat sharoitlari, o'zgalarning parvarishiga, sanatoriy-kurortda davolanishning tegishli turlariga hamda ijtimoiy himoyaga bo'lgan ehtiyoji to'g'risida tavsiyalar berish;

tiflotexnika vositalari — nogironligi boʻlgan shaxslarning koʻrishidagi nuqsoni natijasida yoʻqolgan imkoniyatlarini tiklash va kompensatsiya qilishga qaratilgan vositalar;

shaxs hayot faoliyatining cheklanganligi — shaxsning oʻziga oʻzi xizmat qilish, harakatlanish, yoʻlni topa olish, muloqot qilish, oʻz xulq-atvorini nazorat qilish, shuningdek oʻqish va mehnat faoliyati bilan shugʻullanish qobiliyatini yoki imkoniyatini toʻliq yoxud qisman yoʻqotganligi.

4-moddada Nogironligi boʻlgan shaxslarning huquqlarini taʼminlashning asosiy prinsiplari keltirilgan.

Nogironligi boʻlgan shaxslarning huquqlarini taʼminlashning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

nogironligi boʻlgan shaxslarning qadr-qimmatini, ularning mustaqilligini, tanlash erkinligini hurmat qilish;

nogironlik belgisiga koʻra kamsitilishga yoʻl qoʻymaslik;

insonning huquq va erkinliklarini amalga oshirishdagi imkoniyatlar tengligi;

nogironligi boʻlgan bolalarning rivojlanayotgan qobiliyatini va oʻz individualligini saqlab qolish huquqini hurmat qilish;

obyektlar va xizmatlarning qulayligi;

nogironligi boʻlgan shaxslarni jamiyat va davlatning hayotiga jalb etish.

6-modda. Nogironlik belgisiga koʻra kamsitilishga yoʻl qoʻymaslik prinsipi

Nogironligi boʻlgan shaxslarga nisbatan har qanday ajratib qoʻyish, istisno etish, chetlatish, cheklash yoki afzal koʻrish, shuningdek nogironligi boʻlgan shaxslarning obyektlar va xizmatlardan foydalanishi uchun shart-sharoitlar yaratishni rad etish taqiqlanadi.

Nogironligi boʻlgan shaxslar uchun imkoniyatlar tengligini taʼminlashga hamda ularni jamiyat va davlat hayotiga jalb etishga qaratilgan maxsus choralar boshqa fuqarolarga nisbatan kamsituvchi choralar hisoblanmaydi.

7-modda. Nogironligi boʻlgan shaxslarning huquq va erkinliklarini amalga oshirishdagi imkoniyatlar tengligi prinsipi

Nogironligi boʻlgan shaxslarning huquq va erkinliklarini amalga oshirishdagi imkoniyatlar tengligi ular uchun obyektlar hamda xizmatlardan, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalaridan, sogʻliqni saqlashdan, taʼlimdan, ishga joylashishdan, shuningdek axborotdan va aloqa vositalaridan foydalanish kafolatlarini yaratishga hamda ulardan teng ravishda foydalanish imkoniyatlarini berishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish yoʻli bilan taʼminlanadi.

8-modda. Nogironligi boʻlgan bolalarning rivojlanayotgan qobiliyatini va oʻz individualligini saqlab qolish huquqini hurmat qilish prinsipi

Nogironligi boʻlgan bolalar boshqa bolalar bilan teng ravishda insonning barcha huquq va erkinliklaridan toʻliq hajmda foydalanadi.

Nogironligi bo'lgan bolalarni har tomonlama va uyg'un rivojlantirish, ularning ijtimoiy faolligini, mehnatga bo'lgan qiziqishiga ko'maklashish, ta'limga, ilm-fanga, texnikaga, san'at va sportga jalb etish maqsadida nogironligi bo'lgan bolalar manfaatlarining ustunligi ularga nisbatan bajariladigan barcha harakatlarda ustuvor hisoblanadi.

Bundan tashqari 29-moddada nogironligi bo'lgan shaxsning faksimil imzosi belgilangan.

Nogironligi bo'lgan shaxsning faksimil imzosi — sog'lig'ining holatiga ko'ra (ko'rishning buzilishi, qo'l-oyoqlar yo'qligi, harakatlarni muvofiqlashtirishning buzilishi, falajlik) o'z qo'li bilan imzo qo'yish imkoniyatiga ega bo'lmagan nogironligi bo'lgan shaxsning o'z qo'li bilan qo'ygan imzosi o'rnini bosadigan, maxsus tayyorlangan shtamp (klishe).

Nogironligi bo'lgan shaxsning faksimil imzosi nogironligi bo'lgan shaxs tomonidan faqat, agar u o'zining jismoniy nuqsonlari sababli zarur hujjatlarni imzolash chog'ida o'z qo'li bilan imzo qo'yish imkoniyatiga ega bo'lmasa, qo'llanilishi mumkin.

Faksimil imzo nogironligi bo'lgan shaxs uchun tayyorlanadi va uning tomonidan butun hayoti davomida foydalaniladi. Faksimil imzo yo'qolgan taqdirda uning dublikati tayyorlanadi.

Hech kim faksimil imzodan foydalanishi munosabati bilan o'z fuqarolik huquqlarini amalga oshirishda cheklanishi mumkin emas.

3-dekabrni Xalqaro nogironlar kuni sifatida butun dunyo bo'ylab keng nishonlanishi zamirida aqlan va jismonan nuqsoni bor fuqarolarimiz huquqlarini himoyalash, turmush sharoitlarini yaxshilashdek ezgu maqsadlar mujassam. Zotan, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash orqali jamiyatning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotidagi faolligini ta'minlashga erishish mumkin.

3. “Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida”gi Qonun

Ushbu Qonun 2007-yil 7-yanvarda tasdiqlangan va O'RQ 139-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan. Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiyani ratifikatsiya qilinganidan buyon o'tgan davr mobaynida O'zbekiston bir qancha tegishli qonunlarni qabul qildi, ular qatorida “Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida”gi Qonun alohida rol o'ynaydi.

Ushbu Qonunning maqsadi bola huquqlarining kafolatlari sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Mazmunan u bolani teng huquqli shaxs deb tan oluvchi “Bola huquqlari to'g'risida”gi Konvensiyasining milliy nusxasidir. Binobarin, har bir insonning barcha huquq va erkinliklari bolalarga ham tegishlidir.

“Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida”gi Qonunda davlat va jamiyatning bolalar bilan o'zaro ta'sir va bolalarning har tomonlama rivojlanishiga ko'maklashish sohalari belgilangan. Bular quyidagilar hisoblanadi:

Bolalarning jismoniy, intellektual, ruhiy va ma'naviy rivojlanishiga ko'mak ko'rsatish; bolalarda vatanparvarlik, fuqarolik, bag'rikenglik, va tinchlikparvarlik tuyg'ularini tarbiyalash; O'zbekiston xalqining tarixiy, milliy an'analarini, ma'naviy qadriyatlari va jahon madaniyatining yutuqlari bilan bolani tanishishtirish;

bolaning shaxsini, uning ilmiy, texnik va badiiy ijodkorligini rivojlantirish; bolalarning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash; bolalarning ijtimoiy ko'nikishiga ko'maklashish, voyaga yetmaganlar orasida huquqbuzarliklarni oldini olishga ko'maklashish ko'zda tutilgan.

Qonunda bola huquqlari bo'yicha davlat organlarining faoliyati ham belgilab qo'yilgan.

Bola huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash hamda himoya qilishga oid davlat organlari va mansabdor shaxslar faoliyatining ochiqligi hamda oshkoraligini ta'minlash;

Bola huquqlarini himoya qilish sohasida faoliyat olib boradigan tayyorlash, ular uchun malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslarini tashkil etish;

Bola huquqlarini himoya qilish bilan shug'ullanuvchi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni rivojlantirish.

Ushbu Qonunning 3-moddasida quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

bola (bolalar) — o'n sakkiz yoshga to'lgunga (voyaga yetgunga) qadar bo'lgan shaxs (shaxslar);

bolaning qonuniy vakillari — ota-onalar, farzandlikka oluvchilar, vasiylar, homiylar;

23-moddada esa bolaning bilim olish huquqi kafolatlari berilgan.

Har bir bola bilim olish huquqiga ega. Davlat bolaning bepul majburiy umumiy o'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim olishini kafolatlaydi deb ta'kidlangan.

3-bobda esa ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar huquqlarining qo'shimcha kafolatlari belgilab qo'yilgan.

Qonin qabul qilingandan so'ng 2020-yil 10-mart kuni davlatimiz rahbari "Bola huquqlarining qo'shimcha kafolatlari belgilanishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini imzoladi. Mazkur Qonun Oliy Majlis Senatining ikkinchi yalpi majlisida senatorlar tomonidan [ma'qullangan edi](#). Qonun bilan O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksiga, Fuqarolik protsessual kodeksiga, "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi, "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi Qonunlariga o'zgartish hamda qo'shimchalar kiritilgan.

Xulosa qilib aytganda, ushbu hujjat Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya talablarini har tomonlama hayotga tatbiq etish, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarida nazarda tutilgan bolalarning huquqlarini amalda kafolatlash, ularning

jismoniy, intellektual, ruhiy va ma'naviy yetuk avlod bo'lib yetishishini ta'minlash sohasidagi munosabatlarni tartibga solish maqsadlariga xizmat qiladi.

4. 2021-yil 12-oktabrda Vazirlar Mahkamasining Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid 638-son Qarori

“Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili”da amalga oshirishga oid [davlat dasturi](#) va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-son [qarori](#) ijrosini ta'minlash maqsadida, Vazirlar Mahkamasining Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid 2021-yil 12-oktabrda 638-son Qarori qabul qilingan.

Qarorda bir qator Nizomlar ilova sifatida berilgan

1) Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni tashkil etish tartibi to'g'risidagi Nizom

2) Jismoniy, aqliy, sensor yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun davlat ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari to'g'risidagi Nizom

3) Sanatoriy turidagi ixtisoslashtirilgan davlat ta'lim muassasalari to'g'risidagi Nizom

4) Jismoniy, aqliy, sensor yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan, shuningdek, uzoq vaqt davolanishga muhtoj bo'lgan bolalarga uyda yakka tartibda ta'lim berish tartibi to'g'risidagi Nizom

5) Psixologik-tibbiy-pedagogik komissiyalar to'g'risidagi Nizom

6) Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan davlat ta'lim muassasalarida kasbga o'qitish kurslarini tashkil etish tartibi to'g'risidagi Nizom

7) Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning ta'lim olishi va kasb egallashiga ko'maklashishni tashkil etish bo'yicha ishchi guruh

Biz Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni tashkil etish tartibi to'g'risidagi Nizomi bilan tanishib chiqamiz.

Mazkur Nizom umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar (keyingi o'rinlarda - alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar) uchun inklyuziv ta'limni tashkil etish tartibini belgilaydi.

Nizomda maktablarda boshlang'ich tayanch korreksion sinflar ochilishi mumkin deb ta'kidlangan.

Ushbu Nizom talablari davlat umumta'lim tashkilotlariga nisbatan tatbiq etiladi.

Mazkur Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

inklyuziv ta'lim - alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta'lim oluvchilar uchun ta'lim tashkilotlarida ta'lim olishga bo'lgan teng imkoniyatlarni ta'minlagan holda beriladigan ta'lim;

inklyuziv ta'lim sinfi - maktabdagi alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning boshqa (sog'lom) bolalar bilan teng huquqli va birgalikdagi ta'lim olishlari shaklida tashkil etilgan sinf;

boshlang'ich tayanch korreksion sinfi - maktabda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun alohida tashkil etiladigan boshlang'ich sinf;

o'quvchilar — inklyuziv ta'lim va boshlang'ich tayanch korreksion sinflarda tahsil olayotgan sog'lom yoki alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar.

Maktabda o'quvchilar ta'lim jarayoniga moslashish darajasiga qarab boshqa (sog'lom) bolalar bilan bir qatorda maktabga qatnab muayyan sinfning o'quv rejasiga mos keladigan o'quv dasturlari doirasida tahsil olishi Nizom bilan belgilan qo'yilgan.

Maktabga qatnab o'qish imkoniyati bo'lmagan o'quvchilarga ta'lim berish o'quv rejalari va o'quv dasturlariga muvofiq ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar bilan kelishilgan tavsiyaga muvofiq zarur bilim, malaka va ko'nikmalarni masofadan turib yoki uyda yakka tartibda ta'lim berish orqali amalga oshiriladi.

O'quvchilar turli to'garaklar, sektsiyalar, maktabdan tashqari tadbirlarda qatnashish imkoniyati ega ekanliklari ham Nizomda belgilan qo'yilgan

Inklyuziv ta'limni tashkil etish insonparvarlik, umuminsoniy qadriyatlar, bag'rikenglik, oshkoralik tamoyillariga asosan amalga oshiriladi.

Maktabda inklyuziv ta'lim va boshlang'ich tayanch korreksion sinflar bolalarning yosh va individual xususiyatlari, aqliy rivojlanishi darajasi, somatik va asab-ruhiy sog'lig'i holatiga muvofiq tashkil etiladi.

Nizomning 2-bobida inklyuziv ta'limning maqsadi va vazifalari belgilangan.

inklyuziv ta'limning maqsadi - Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilar uchun maktabda maxsus vosita va metodlarni qo'llash orqali maxsus pedagoglarni jalb etgan holda to'siqsiz moslashtirilgan ta'lim muhitini yaratish, ularning jamiyatga samarali moslashuvi hamda to'laqonli uyg'unlashuviga xizmat qiladigan sifatli umumiy o'rta ta'lim berishni ta'minlashdan iborat.

Maktablar alohida ta'lim olish ehtiyoji bo'lgan bolalar va ularning ota-onalariga korreksion pedagogik yordam olishida va kasbga yo'naltirishda har tomonlama yordam ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: «O'zbekiston», 2014 y.
2. O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni / O`RQ-637-son 23.09.2020 y.
3. O'zbekiston Respublikasining Qonuni/“Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida”gi O`RQ-641-son 15.10.2020 y.
4. O'zbekiston Respublikasining «Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risidagi Qonuni». // – Toshkent, 2008.

5. «2017-2021yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha [Harakatlar strategiyasi](#)».

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Nogironligi bo‘lgan shaxslarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. Toshkent sh., 2017 yil 1 dekabr, PF-5270-son.

7.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasi xalq ta‘limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi Farmoni. Toshkent sh., 2019 yil 29 aprel, PF-5712-son.

8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2021 yil 12 oktabrdagi 638-son “Alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta‘lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori

Internet resurslari:

1. <https://lex.uz>